



UDK 37.018.43:316.624

Alisher MADRAHIMOV,
PhD, Central Asian medical Universiteti o'qituvchisi, Farg'ona, O'zbekiston
E-mail: alisherw35@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0005-8015-6412>

Dotsent G.Karimova taqrizi asosida

O'QUVCHILAR O'RTASIDA ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlikning oldini olishda maktab, oila va mahalla hamkorligining ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda profilaktik faoliyatning samaradorligi, o'zaro axborot almashinuvi, tarbiyaviy yondashuvlar hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, hamkorlikni mustahkamlash orqali xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirish, nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash va o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: O'quvchilar, zo'rvonlik, profilaktika, maktab, oila, mahalla, hamkorlik, ijtimoiy muhit, tarbiya, xavfsizlik, ijtimoiy nazorat, nizolar.

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ШКОЛЫ, СЕМЬИ И МАХАЛЛИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ НАСИЛИЯ СРЕДИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье анализируется социальное значение сотрудничества школы, семьи и махалли в предотвращении насилия среди учащихся. В исследовании рассматриваются эффективность профилактической деятельности, взаимный обмен информацией, воспитательные подходы, а также механизмы социальной поддержки. Кроме того, обосновываются возможности формирования безопасной образовательной среды, раннего выявления конфликтных ситуаций и улучшения социальной адаптации учащихся посредством укрепления взаимодействия между школой, семьей и махаллей.

Ключевые слова: Учащиеся, насилие, профилактика, школа, семья, махалля, сотрудничество, социальная среда, воспитание, безопасность, социальный контроль, конфликты.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOLS, FAMILIES AND MAHALLAS IN PREVENTING VIOLENCE AMONG STUDENTS

Annotation

This article analyzes the social significance of cooperation between schools, families, and mahallas in preventing violence among students. The study examines the effectiveness of preventive activities, mutual information exchange, educational approaches, and mechanisms of social support. Furthermore, it substantiates the possibilities of creating a safe educational environment, identifying conflict situations at an early stage, and improving students' social adaptation through strengthening cooperation between schools, families, and mahallas.

Key words: Students, violence, prevention, school, family, mahalla, cooperation, social environment, education, safety, social control, conflicts.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim muhitida o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, o'quvchilar o'rtasida kuzatiladigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy zo'rvonlik holatlari nafaqat ta'lim jarayonining sifatiga, balki yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va jamoadagi munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni faqat ta'lim muassasasi doirasida emas, balki oila va mahalla bilan uzviy hamkorlikda o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zo'rvonlikning oldini olish samaradorligi ko'p jihatdan uning dastlabki belgilarini o'z vaqtida aniqlash, mavjud muammolarning ijtimoiy sabablarini anglash va profilaktik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishga bog'liq [1]. Bunda maktab

o'quvchining kundalik ta'lim va muloqot muhitini, oila uning tarbiyaviy va hissiy qo'llab-quvvatlash makonini, mahalla esa kengroq ijtimoiy muhitni ifodalovchi muhim institutlar sifatida qaraladi. Ushbu subyektlarning hamkorligi o'quvchi xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatish, nizoli vaziyatlarning sabablarini aniqlash va ularga kompleks yondashish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi maktab, oila va mahalla o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash orqali o'quvchilar o'rtasidagi zo'rvonlikning oldini olishning samarali mexanizmlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi ushbu institutlar hamkorligining ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda zo'rvonlikning profilaktikasida ularning o'zaro ta'sirini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni asoslashdan iborat [2].

Yoshlarning fikriga ko'ra, maktab o'quvchi-yoshlari o'rtasida bullingning shakllanishiga kattalarning ta'siri



Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlikning oldini olishda maktab, oila va mahalla hamkorligining ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy munosabatlarning tizimlili, o'zaro ta'sirchanligi va institutsional hamkorlik tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuv orqali zo'rvonlik holatlari alohida hodisa sifatida emas, balki o'quvchining oilaviy, ta'limiy va mahalliy ijtimoiy muhit bilan munosabatlari bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqildi [3].

Tadqiqot jarayonida, avvalo, nazariy tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul yordamida o'quvchilar o'rtasidagi zo'rvonlik, uning ijtimoiy sabablari, profilaktik mexanizmlari hamda maktab, oila va mahalla institutlarining tarbiyaviy imkoniyatlariga oid ilmiy qarashlar o'rganildi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tegishli tadqiqot natijalari tahliliy jihatdan umumlashtirilib, mavjud yondashuvlarning o'zaro farqli va mushtarak jihatlari aniqlandi.

Empirik ma'lumotlarni shakllantirishda sotsiologik so'rov usulidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. So'rovnoma savollari o'quvchilarning zo'rvonlik holatlariga munosabati, nizoli vaziyatlarning uchrash darajasi, zo'rvonlikka sabab bo'luvchi omillar hamda bunday holatlarda kimdan yordam so'rashga moyilligi kabi masalalarni aniqlashga qaratildi. Shuningdek, respondentlarning maktabdagi psixologik muhit, o'qituvchilar bilan munosabat va oilaviy qo'llab-quvvatlash haqidagi qarashlari ham o'rganildi.

Tadqiqotda suhbat usulidan ham foydalanilib, ta'lim jarayonida bevosita ishtirok etuvchi subyektlarning fikrlari o'rganildi. Xususan, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla vakillarining zo'rvonlikning oldini olish borasidagi qarashlari, mavjud muammolarni aniqlash tajribasi hamda profilaktik faoliyatga munosabati tahlil qilindi. Suhbat natijalari o'quvchilar o'rtasida shakllanadigan nizolarning tashqi va ichki omillarini chuqurroq tushunishga xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali maktab, oila va mahalla tomonidan amalga oshiriladigan profilaktik faoliyatning o'ziga xos jihatlari solishtirildi. Mazkur usul hamkorlikning qaysi yo'nalishlari samaraliroq ekanini aniqlash, shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun zarur ijtimoiy mexanizmlarni belgilash imkonini berdi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv asosida ushbu uchta ijtimoiy institutning o'zaro bog'liqligi va ularning umumiy profilaktik maqsadga ta'siri baholandi [4].

Olingan ma'lumotlarni izohlashda umumlashtirish, guruhlash, tasniflash va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Natijalarni tahlil qilish jarayonida asosiy e'tibor zo'rvonlikning oldini olishda faqat alohida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish emas, balki maktab, oila va mahalla o'rtasida muntazam axborot almashinuvi, o'zaro mas'uliyat va hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish muhimligiga qaratildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodlari o'quvchilar o'rtasidagi zo'rvonlikni ijtimoiy hodisa sifatida kompleks o'rganish, uning yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda profilaktik faoliyatda maktab, oila va mahalla hamkorligining amaliy imkoniyatlarini baholashga yo'naltirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari o'quvchilar o'rtasida zo'rvonlikning oldini olish jarayonida maktab, oila va mahalla institutlarining o'zaro hamkorligi muhim ijtimoiy omil ekanligini ko'rsatdi. O'rganishlar davomida zo'rvonlik holatlarining shakllanishi va davom etishida faqat individual xususiyatlar emas, balki o'quvchining oilaviy munosabatlari, maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit, tengdoshlar bilan aloqalari hamda mahalladagi ijtimoiy nazorat darajasi ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shu jihatdan zo'rvonlik profilaktikasiga kompleks yondashish zarurligi asoslandi. [5].

Tadqiqot davomida o'quvchilar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarning samaradorligi, avvalo, muammoli vaziyatlarni erta aniqlash va ularga o'z vaqtida munosabat bildirish bilan bog'liqligi kuzatildi. Maktab tomonidan o'quvchilarning xulq-atvoridagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish, sinf jamoasidagi munosabatlarni tahlil qilish va nizoli vaziyatlarning sabablarini aniqlash zo'rvonlik xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur faoliyatning samarasi oila bilan muntazam aloqa o'rnatilganda yanada yuqori bo'lishi mumkin.

Oila o'quvchining dastlabki ijtimoiylashuv muhiti sifatida uning xulq-atvori, muloqot madaniyati va nizolarga munosabatining shakllanishida muhim o'rin tutadi [6]. Tadqiqot natijalari ota-onalarning farzandlari bilan ochiq muloqot qilishi, ularning muammolariga befarq bo'lmazligi va maktab bilan muntazam hamkorlik qilishi profilaktik faoliyatning muhim sharti ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, o'quvchining xulqidagi keskin o'zgarishlar, ijtimoiy chekinish yoki tengdoshlari bilan munosabatlaridagi muammolarni o'z vaqtida payqash zo'rvonlik holatlarining oldini olish imkoniyatini oshiradi.

O'quvchilarning maktabdagi bullingga aralashib qolishiga ota-onalar ta'siri yuzasidan respondentlarning fikri o'rganilganda, ularning uchdan bir qismiga yaqini kattalarning bolaga nisbatan qo'pol va salbiy muloqoti (28,2%), haqorat va haddan ziyod tanqid (28,2%), xohish va ehtiyojlarga qarshi bo'lish (26,5%), haddan tashqari buyruqbozlik va ayblovlar (14,8%) kabi omillar salbiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlaganlar

Ma'lumki, tajovuzkor o'quvchining xulq-atvoriga oiladan tashqari atrof-muhitdagi omillar, jumladan, internet, do'stlar va tanishlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Respondentlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda zo'rvonlikning asosiy tashviqoti internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarning 77,3 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida zo'rvonlikni targ'ib qilishning asosiy vositasi deb hisoblansa, 9,3 foizi – radio va televideniye, 5,3 foizi – gazeta va jurnallar, 6,2 foizi boshqa manbalarni ko'rsatishgan. Shuningdek, respondentlarning deyarli 25 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tajovuzkor video yoki yangiliklarni tomosha qilishlari ma'lum bo'ldi [7].

Mahalla instituti esa maktab va oilani bog'lovchi qo'shimcha ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mahalla faollari, ota-onalar va ta'lim muassasasi vakillari o'rtasidagi hamkorlik o'quvchining ijtimoiy muhitini yaxlit tarzda kuzatish imkonini beradi. Ayniqsa, ijtimoiy muammolari mavjud oilalar bilan individual ishlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va turli ijtimoiy loyihalarga jalb qilish profilaktik

faoliyatning samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida baholandi. Maktablarda yuz beradigan zo'ravonlik hodisasini tizimli tahlil qilishda tizim yasovchi boshqa elementlar – muhit, madaniyat, tuzilma, oila va mahalla kabilarning o'rini ham diqqat markazida saqlash muhim o'rin tutadi. Masalan, O'zbekiston sharoitida XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida butun jamiyat miqyosida inson huquqlariga e'tiborning kuchayishiga qaramay, ayni paytda ijtimoiy mas'uliyatning ko'pchilik fuqarolarda susayib borayotganligi maktablardagi tarbiya jarayonlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Mazkur jarayonlar o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida, ayniqsa, o'smirlararo zo'ravonlik hodisalarining ko'payishiga olib kelgan asosiy omillardan biri bo'ldi.

Maktablarda o'quvchilar o'rtasida tobora ko'payib borayotgan zo'ravonliklarni yoritishda ko'proq maktab jamoasi, pedagoglarning no'noqligi, oilada, ota-onada pedagogik mahoratning yetishmasligi kabi omillar bilan bog'lab tushuntirishga intilishlar ko'p kuzatiladi. Bular ham, albatta, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bular aysbergning ko'rinib turgan suv yuzasidagi qismi bo'lib, asl sabablar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi qator o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, maktab, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlik faqat muammo yuzaga kelganidan keyin amalga oshiriladigan chora sifatida emas, balki muntazam profilaktik tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Bunda axborot almashinuvi, o'zaro mas'uliyat, individual yondashuv va muntazam monitoring muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi. Hamkorlikning tizimli yo'lga qo'yilishi nizolarni erta bosqichda aniqlash, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhitini shakllantirishga yordam beradi [8].

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'quvchilar o'rtasidagi zo'ravonlikni individual xatti-harakat emas, balki oila, maktab va mahalla o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida tahlil qilish imkonini berganligi bilan belgilanadi. Olingan natijalar mazkur yo'nalishda olib boriladigan keyingi sotsiologik tadqiqotlar uchun nazariy va uslubiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan yondashuvlardan maktablarda profilaktik tadbirlarni takomillashtirish, ota-onalar bilan ishlash tizimini kuchaytirish, mahalla bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish va xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Durkheim E. The Rules of Sociological Method. Translated by W.D. Halls. – New York: The Free Press, 1982.
2. Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Cambridge: Polity Press, 1984.
3. World Health Organization. Global Status Report on Violence Prevention 2014. – Geneva: World Health Organization, 2014.
4. Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. – Oxford: Blackwell Publishing, 1993.
5. Bekmurodov M., Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 144 b.
6. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 296 b.
7. Madrahimov A.M. O'rta maktablarda o'smirlar o'rtasidagi zo'ravonlik (bullying) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili: sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: DBA, 2024.
8. Yunusov A.B. O'smir-yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari: sotsiologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2004.